



# ARES

ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES

SJIF 2021: 5.723

2021/04  
VOLUME 2  
SPECIAL ISSUE 3



**ARES.UZ**

Exact Sciences  
Natural Sciences  
Technical Sciences  
Pedagogical Sciences  
Medical Sciences  
Social and Humanitarian Sciences



## BOSHLANG'ICH SINF TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA TURLI MATERIALLAR BILAN ISHLASH DARSLARINING SHAKL VA METODLARI

**Gulnaza Boyxo'jaeva**

Chirchiq davlat pedagogika instituti Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi talabasi

Ilmiy rahbar: Rabbina Atajanova

### **ANNOTATSIYA**

Turli materiallar bilan ishlash jarayonida o'quvchilar turli bo'laklarni o'zaro biriktirish, ulash, qo'zg'aluvchan yoki qo'zg'almas qilib o'rnatish, qumqog'oz, egov, pichoq va shu kabilar bilan ishlov berish usullarini ham bekamu-ko'st o'zlashtirish olishlari kerak. Ayrim hollarda turli materiallardan yasaladigan shakllar, o'yinchoqlarning ifodaliliginini, ta'sirchanligini oshirishda tashlandiq materiallar ham ishlataladi. O'qituvchi o'quvchilarga kerakli tushunchalarni berishda masalaning anna shu jihatiga ham e'tibor berishlari lozim.

**Kalit so'zlar:** qumqog'oz, egov, pichoq, gerbariy, pressda quritish, dazmol bilan quritish, somondan applikatsiyalar yasash.

### **FORMS AND METHODS OF WORKING WITH DIFFERENT MATERIALS IN PRIMARY SCHOOL FINE ARTS CLASSES**

**Gulnaza Boykhojaeva**

Student of Fine Arts and Engineering Graphics, Chirchik State Pedagogical Institute

Supervisor: Rabbina Atajanova

### **ABSTRACT**

In the process of working with different materials, students will also learn how to attach different pieces together, connect, move or not move, and work with sandpaper, egov, knives, and so on. should be able to master fluffy. In some cases, molds are made of different materials, and discarded materials are used to increase the expressiveness and effectiveness of toys. The teacher should also pay attention to this aspect of the problem when giving students the necessary insights.

**Keywords:** sandpaper, knife, herbarium, press drying, ironing, straw applications.

## KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlis 1997 yil 29 avgustda qabul qilingan —Ta‘lim to‘g‘risidagi yangi qonun va —Kadrlar tayyorlash milliy dasturil ta‘lim sohasidagi siyosatimizni belgilab berdi. Uzluksiz ta‘limni tashkil etishni rivojlantirish izchilligi uzluksiz ta‘limni isloh qilish, uzluksiz ta‘lim tizimi va turlari haqidagi masalalarini qamrab olgan. Birinchi Prezidentimiz I.A Karimov ta‘kidlaganidek “Har bir insonning ayniqsa endigina hayotga qadam qo‘yib kelayotgan yoshlarning ongiga shunday fikrni singdirish kerakki, ular o‘rtaga qo‘yilgan maqsadga erishishi o‘zlariga bog’liq ekanligini, ya’ni bu narsalar ularning sobit qadam, g’ayrat, shijoatlariga, to‘la-to‘kis fidokorligi va cheksiz mehnatsevarliklariga bog’liq ekanligini anglab yetishlari kerak”.[1]

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Asbob va uskunalardan foydalanish qoidalari. Turli materiallar bilan ishslash jarayonlarida odatda bir necha asbobdan foydalaniladi, ularni esa navbatchilar tarqatadi. Stolning ustida o‘quvchilar diqqatni chalg‘itadigan hech qanday ortiqcha narsa bo‘lmasligi kerak. Asboblarni, ayniqsa kesuvchi asboblarni charm g‘ilofda saqlagan ma’qul. Har bir g‘ilof asbobning ma‘lum turiga mo‘ljallangan bo‘ladi. Navbatchi o‘qituvchi asboblarni tarqatishni doimo birinchi partadan boshlaydi, bunda o‘quvchilar tartib va tejamkorlikka o‘rganadilar.

Hamma foydalanadigan asboblар sinf shkaflarda saqlanadi, ishdan so‘ng asboblarni o‘quvchilar tozalab yuvib, artib navbatchi o‘quvchiga topshiradilar. Sinf ish xonasida o‘quvchilarga asboblarni ishlatish va saklash qoidalari eslatib turuvchi plakat – eslatmalar osig‘lik bo‘lishi kerak. Xavfsizlik texnikasiga qoidalariiga to‘liq rioya qilish baxtsiz hodisalarning oldini oluvchi ishonchli garovdir. Asboblarni ishlatish qoidalari o‘quvchilar vaqtı-vaqtı bilan takrorlab turishi lozim. U yoki bu qoidani tushuntirishda o‘qituvchi nima uchun shunday qilish kerakligini, bu qoidalarga rioya kilinmasa qanday xodisalar ruy berishi mumkinligini uqtirishi lozim. Mehnat darslarida texnika xavfsizlikning barcha qoidalari so‘zsiz bajarilishi lozim.[5]

Turli materiallar bilan ishslash jarayonida o‘quvchilar turli bo‘laklarni o‘zaro biriktirish, ulash, qo‘zg‘aluvchan yoki qo‘zg‘almas qilib o‘rnatish, qumqog‘oz, egov, pichoq va shu kabilar bilan ishlov berish usullarini ham bekamu-ko‘st o‘zlashtirish olishlari kerak. Ayrim hollarda turli materiallardan yasaladigan shakllar, o‘yinchoqlarning ifodalilagini, ta‘sirchanligini oshirishda tashlandiq materiallar ham ishlatiladi. O‘qituvchi o‘quvchilarga kerakli tushunchalarni berishda masalaning anna shu jihatiga ham e‘tibor berishlari lozim. Turli materiallarning haqiqiy shakllaridan kerakli o‘rinlarda foydalanish mumkin. Bunda bolalar turli materiallardan ifodalangan biron-bir obrazning o‘xhashlik tomonlarini yanada burttirib, qo‘shimcha

ishlov berish orqali haqiqiysiga yaqinlashtirish hamda bunda asbob-uskunalardan foydalanishni o‘rganadilar.

Turli materiallar bilan ishslash, ularga turlicha ishlov berishni, turli usullarda qo‘ritishni va ularni ishlatish bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishni talab qiladi.

## NATIJALAR

Gerbariy papkalarida quritish. To‘plangan o‘simpliklarni o‘quvchilar turli usullarda quritib olishlari mumkin. Bulardan bittasi gerbariy papkalarida quritish. Bu quritish usulidan foydalilganda o‘simpliklarning ko‘pchiligi o‘zining turli rangini saqlab qoladi. Bunda o‘simplik yumshoq qog‘oz yoki gazeta orasiga solib qo‘yiladi. Har bir varaq qog‘oz va o‘simplik o‘rtasiga yana bir necha qavat qog‘oz yoki gazeta qo‘yiladi, chunki quritilayotgan o‘simplik o‘zidan namlik chiqaradi. Chiqayotgan namlikni qog‘oz shimib olishi uchun. Shundan so‘ng papka ikkita tursimon rama o‘rtasiga qo‘yilib, ochiq havoga qo‘yiladi. Agarda havo harorati kechasi juda pasayadigan bo‘lsa, quritilayotgan o‘simplik issiq va qo‘riq joyga olib o‘tiladi.

Murakkab gullilar quritilganda tupgullilar poyasidan ajratilib pastgacha joylashtiriladi, so‘ngra uning ustiga paxtani aylana qilib qo‘yiladi, bunda faqat barglar usti yopilib, gulning o‘rtasi ochiq qoldiriladi. Yirik tupgulli o‘simpliklarning gulini quritish murakkab tayyorgarlikni talab qilganligi uchun ham qo‘yi sinf o‘quvchilari ularni quritish bilan shug‘ullanmaydilar.[6]

O‘simpliklarni gerbariyalar va applikatsiya ishlari uchun quritishda ishlov berish hamda tayyorlash usullari Z.A.Mamatovaning «O‘simpliklarning turli rangi va shaklini saqlagan holda gerbariy qilish» kitoblarida yaxshi bayon etilgan.

Pressda quritish. O‘simpliklarni pressda qo‘ritish usuli ancha oson usullardan biri hisoblanadi. Bunda orasiga o‘simplik solingan qog‘ozlar gerbariy papkasi o‘rniga ikkita faner listlari o‘rtasiga joylanib, og‘ir narsa bostirib qo‘yiladi. Og‘irlik pressga qancha o‘simplik joylashtirilganiga bog‘liq bo‘ladi. Mayda nozik o‘simpliklar kam og‘irlikni va quritish uchun kamroq vaqtini talab qiladi. 2—3 soatdan so‘ng qog‘oz tagliklar almashtiriladi. Quritish shu usulda davom ettiriladi.

Dazmol bilan quritish. Issiq dazmol bilan odatda barglar, poyalar, maysalar quritiladi. Bunda bu turli materiallarni qavat-qavat gazeta yoki yumshoq qog‘oz orasida qo‘yib, ustidan sekinlik bilan dazmol yurgiziladi. So‘ngra ustki qavatdagagi gazetani olib, quritilayotgan narsa shamollatiladi va bu ish qayta takrorlanadi va quruq joyga suriladi, so‘ngra gazetani yopib yana dazmollanadi. O‘simplik 2—3 minutda quriydi va u o‘zining turli rangini yo‘qotmaydi. Agarda quritilgan narsa ko‘tarilganda o‘z tanasini ushlab tursa, u yaxshi quritilgan hisoblanadi, agarda u sinib, maydalanib ketsa, demak, u ortiqcha quritib yuborilgan hisoblanadi. Quritilgan

o'simliklar, ayniqsa gullar gigroskopik bo'lib, nam tekkanda ular tezda ildiz otadi, shuning uchun foydalanishga qadar ularni quritilgan joylarida, varaqlar orasida, yopiq papka, quti, shkaflarda saqlagan ma'qul. Bunda ular pechka va shu kabi isitish asboblaridan uzoqroqda bo'lishi kerak, aks holda burglar ortiqcha qurib, sinuvchan bo'lib qoladi.[7]

## MUHOKAMA

O'quvchilar e'tiborini va aqliy faoliyatlarini kuzatilayotgan ob'ektdan mehnat darslarida ishlarni bajarish uchun zarur bo'lgan asosiy muhim belgilari, elementlari va xususiyatlarini ajratishga, to'planayotgan materialni to'g'ri baholashga yo'llaydigan savollar ro'yxati tuziladi. Daraxtzorga kelganda bolalar kayfiyati ko'tarilib, ular har narsaga qiziqish bilan qaraydilar, barglar, ularning ranglari bolalarni ajablantiradi. Ular kuzning butun go'zalligini, uning ranglarini, to'kilgan barglar hidi va ular o'zining elastiklik xususiyatini yuqotganligini, qattiqlashib, sinuvchan bo'lib qolganligini ko'radilar. Bolalarning atrof-tabiat bilan zavqlanishlari kamayib borishiga qarab, ularning e'tibori barglarning shakli, daraxtlar navlariga qaratiladi. Ana shu vaqtida o'simliklarda sodir bo'layotgan ichki jarayonlar qisqa va tushunarli formada bayon etib beriladi: o'simlik yangi sharoitlarga moslashib, qishga tayyorgarlik ko'ryapti.

Somondan applikatsiyalar yasash. Poxol-somondan qadimdan odamlar foydalanib kelishgan. Ulardan turli foydali narsalar: bosh va oyok kiyimlari, sumkalar, koplar, idishlar, o'ynichoqlar, bezaklar, devorlar vaboshqa narsalarni yasashda foydalanib kelishgan. Xozirgi kunda esa sanoatda tukish va dekoratsiya, applikatsiya ishlarida (kutichalar, panellar, qalamdonlar) va shu kabilarga bezak berishda foydalaniladi. Somon-boshqoli ekinlarning poyasi bo'lib, unga ishlov berish oson bo'lgan materialdir. Somondan yasalgan narsalar juda chiroqli va nafisdir. Somon bilan ishslash o'quvchilar badiiy didini rivojlantirishga va o'stirishga yordam beradi Bu maqsadda bug'doy, javdar, arpa somonlari ishlatiladi. Somonni boshoqli ekinlarni yig'ib-terib olingandan so'ng ajratib olinadi. Bunda somon och sariq rangda bo'ladi. Agarda bu o'simliklarning poyasi yaxshilab ko'rib chikqilsa, poyaning o'zaro bo'g'imlar bilan birikanligini, eng yuqoridagi qismi ingichkarok, uzunroqligini ko'rish mumkin. Somon qalamchalarini olish uchun poyaning o'rta va pastki qismi qaychi yoki biror o'tkirtig'li buyum yordamida bo'g'imlardan qirqib, qismlarga ajratiladi. qirqilgan poya qismlari ko'rinishi va uzunligiga ko'ra sortlarga ajratiladi: eng uzuni 1 sort, kaltarog'i 2 sort, eng qisqasi 3 sort. Maydalangan somondan foydalanib bo'lmaydi, chunki u singan va o'z shaklini yo'qotgan bo'ladi. Shunung uchun somonni qo'lda terib olish kerak. Somonni ishlatishdan oldin qalamchalar bog'lami tog'oraga solinib, ustidan qaynoq suv qo'yiladi va tog'orada

bir sutka saqlanadi. Somon yumshab mayinlangandan so‘ng uni tog‘oradan olib, suvi silkitib tushiriladi va har birini uzunasiga o‘rtasidan bo‘linadi.

Somonni qirqqanda pastdan yuqoriga qarab qirqiladi. So‘ngra somonning qirqilgan tomonini pastga qilib qo‘yib, iliq qilib dazmollanadi. Dazmolning qiziganlik va dazmollah vaqtiga ko‘ra somonni turli rangga kiritish mumkin. Masalan, och-sariq, sariq, och jigar rang, jigar rang. Tayyor somon qalamchalarini turli ranglarga bo‘yash mumkin bu tasvirni chiroqli chiqishiga yordam beradi. Dazmollangan somon ehtiyotlik bilan qutichaga solib qo‘yiladi. Somon qalamchalarini yelimlash bajariladigan ishning asosiy bosqichidir. Somon qalamchalarini yelimlashda PVA yelmlaridan foydalanish maqsadga muvofikdir, chunki somon qalamchalarining elastiklik holatini yo‘qotmaydi, boshqa yelmlaridan foydalanib bo‘lmaydi, chunki vaqt o‘tgan sayin qurib, sarg‘ayib, qo‘porilib ketadi va tayyorlagan ishning sifatini buzadi. Ishni boshlashdan oldin applikatsiya tasvirini chizib olish kerak. Chizilgan tasvir qog‘ozning ikkinchi tomonidan ham ko‘rinib turishi kerak. Chunki somon qalamchalari yopishtirib bo‘lingandan so‘ng tasvir shakli qirqib olinadi. Tasvirni turli ko‘rinishlarda: hayvonlar, qushlar, odamlar, mevalar, binolar, buyumlarning tasvirlaridan va turli manzaralardan foydalanish mumkin. Tasvirning ko‘rinishiga qarab bir qancha qismlarga ajratib olish mumkin. Tasvirning bir qismiga yelim suriladi va somon qalamchalari bir xil yo‘nalishda yopishtiriladi va qolgan qismlariga ham yelim yupqa qilib surtilib, somon qalamchalari turli yo‘nalishlarda yopishtiriladi. Shunda tasvir aniq ko‘rinishga ega bo‘ladi. Yelimlangan somon qalamchalari tasvirning chetki chiziqlaridan chiqib turishi kerak. Yelimlash ishlari to‘gagandan so‘ng qog‘ozni orqasiga o‘girib, qaychi yordamida qog‘ozdagi tasvirni va somon qalamchalarini ortiqcha qismini qirqib olamiz. Tasvirni qirqib olishda aniq, to‘g‘ri va sifatli qirqishni amalga oshirish kerak. Tasvirni asosi uchun to‘q rangdagi fon olinadi. Chunki somondan tayyorlangan tasvir aniq va ravshan ko‘rinishi uchun qora va boshqa to‘q rangdagi barxatli qog‘ozdan foydalaniladi. Yanada ish sifatli chiqish uchun matoga, ramkalarga yoki faner listlaridan foydalanish mumkin.

## XULOSA

Agarda somondan narsalar yoki qo‘g‘irchoq to‘qish ishlarini bajarish uchun somon bog‘ini tog‘oraga solib 2-3 kun maboynidagi issiq suvda ivitib qo‘yish kerak. Ivigan somon poyasini tog‘oradan namligida olib, suvdan tozalab olinadi va somon poyasi yumshoqlik vaqtida 4 ta somon poyasidan iborat lenta to‘qiladi yoki somon poyalari bog‘ qilib bog‘lanadi. To‘qilgan somon lentalardan: shlyapalar, karmonlar, devorlar, uyning tom qismlari va shu kabilar tukiladi. Bog‘langan somon poyalarini ip yordamida bog‘lab bosh qismi ajratib olinadi va qolgan qismlarii o‘rilgan somon

poyasidan yoki somon bog‘idan bog‘lanib tana qismiga o‘lanadi. Tayyorlangan shakllarga qo‘sishimcha ishlov berib bolalar uchun turli ko‘rinishdagi o‘yinchoqlar, buyumlar, hayvon shakllarini yasash mumkin.

## REFERENCES

1. I.A.Karimov —O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida|| Toshkent – «O‘zbekiston» -2011 у
2. I.A.Karimov. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch – T.: Ma‘naviyat, 2008, - 40,41-b.
3. Ta`lim to‘g`risidagi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni (Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori) 1997 yil T.,—Sharq|| nashriyoti
4. Kadrlar tayyorlash buyicha milliy dastur (Barkamol avlod-O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori) 1997 yil T.,—Sharq|| nashriyoti
5. R.A. Mavlonova va boshqalar —Pedagogika|| T., —O‘qituvchi|| 2008 yil
6. R.A.Mavlonova, Sanaqulov X.R. Xodieva D.P —Mehnat va uni o‘qitish metodikasi|| TDPU. 2007 yil
7. Nurmatova M.. —Mehnat tarbiyasi|| Toshkent. TDPU. 2005 у
8. Атажанова, Р. Р. (2020). Рабочая тетрадь по изобразительному искусству как средство повышения креативного мышления самостоятельной работы учеников в младших классах. Academic Research in Educational Sciences, 1(2), 201-204.
9. Халилов Р. Ш., Атажанова Р. Р. (2018). Использование рабочей тетради в обучении изобразительной деятельности в начальном классе. Молодой учёный, № 7 (193). 196-199.
10. Rakhimovna, A. R. (2020). Art workbook as a means of improving the efficiency of independent work of pupils in younger classes. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 8 (5), 54-56.
11. Р Р Атажанова, Н Р Атаева. (2020). Роль изобразительной деятельности во всестороннем развитии дошкольников Academic research in educational sciences, 4, 450-454.

## CONTENTS

### Volume 2, Special Issue 3, APRIL, 2021

Bobomurodov, I. (2021). MUSTAQIL O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA TURIZM AHAMIYATINI OSHIRISHNING HUQUQIY OMILI VA SAMARADORLIGI. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES, 2(3), 102-108.

---

Boboyeva, M. U. (2021). BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING O'QISH SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA OTA-ONANING O'RNI. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES, 2(3), 109-112.

---

Boizaqova, S. A. (2021). KO'RINISHLAR MAVZUSNI TUSHUNTIRISHDA DETAL MODELINI O'ZIGA QARAB O'RGANISHNING AHAMIYAT. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES, 2(3), 96-101.

---

Botirboyev, F. P. (2021). TO'RA SULAYMON IJODIDA VATANGA MUHABBAT MOTIVLARI TALQINI. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES, 2(3), 113-118.

---

Boyxo'jaeva, G. (2021). BOSHLANG'ICH SINF TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA TURLI MATERIALLAR BILAN ISHLASH DARSLARINING SHAKL VA METODLARI. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES, 2(3), 125-130.

---

Eshbayeva, Z. Z. (2021). NUTQI TO'LIQ RIVOJLANMAGAN BOLALAR IDROKINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES, 2(3), 224-228.

---

Eshmurodova, U. X. (2021). TAMAKI MOZAIKA VIRUSINING TABIATDAGI O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARINING BIOLOGIK TALQINI. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES, 2(3), 281-287.

---

Inomjonova, S. S. (2021). FALASTIN VA ISROIL-YAHUDIYA PODSHOLIGI. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES, 2(3), 412-414.

---

Isometova, G. D. (2021). TA'LIM TIZIMIDAGI MUAMMOLAR VA ULANING YECHIMLARI. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES, 2(3), 149-151.

---

Izatullayeva, D. D. (2021). TALABALARGA TA'LIM BERISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING DOLZARBLIGI VA SAMARAORLIGI. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES, 2(3), 302-306.

---

Izzatova, R. U. (2021). ISPANIYADAGI ISLOM MADANIYATIGA OID ME'MORIY INSHOOTLAR VA ULARNING HOZIRGI KUNDAGI QIYOFASI. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES, 2(3), 250-255.

---

Jo'rayeva, K. (2021). DASTGOHLI RANGTASVIRDA MAISHIY JANRNING IFODALANISHI. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES, 2(3), 194-197.

---

Jumabayeva, C. B. (2021). SEBARGA (Trifolium.L) O'SIMLIGINI KASALLANTIRUVCHI FITOVIRUSLAR VA ULARNING XARAKTERISTIKASI. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES, 2(3), 449-453.

---

Jumanova, K. G. (2021). A NEW APPROACH TO TEACHING FOREIGN LANGUAGES: CASE STUDY. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES, 2(3), 131-134.